


**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-martdagi 3/15-4/1-2620-son ijrosi yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida  
amalga oshirilgan ishlar  
MA'LUMOTI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori bilan tasdiqlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar kalendar rejasining 9-bandiga muvofiq, **2025-yil 30-mart kuni** respublikamizda **"Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni"** nishonlanishi belgilangan.


Shu munosabat bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida professor o'qituvchilari ishtirokida shu sanaga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.



Tadbirda shu sanaga oid ma'lumotlarni, aynan nima uchun **"Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni"** dunyo bo'ylab har yili 30-martda nishonlanishi, butun yer yuzida chiqindilar muammosini bartaraf etish chora tadbirlari to'g'risida Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida mudiri Hamroyeva Marg'uba Komilovna tomonidan ma'lumotlar berib o'tildi.



Tadbirda shuningdek, kafedramiz o'qituvchilari tomonidan "Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni" da chiqindilarni maxsus belgilangan yashiklarga solish, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish to'g'risida Biologiya yo'nalishi talabalariga yetarlicha ma'lumotlar berildi. Tadbirda Biologiya yo'nalishi talabalari ham faol ishtirok etib, o'zlari qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.



**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha prorektori:**



**B.Jo'rayev**

**/Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani:**

**B.Iraliyev**

**Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari  
texnologiyalari kafedrası mudiri:**

**M.Hamroyeva**

**Kotiba :**

**D. Sodiqova**